

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi899

Q.V.Yo'ldiyev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik930

I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari936



UO'K: 81'367:340.12

KELISHIK SHAKLLARI SINONIMIYASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СИНОНИМИИ ФОРМ ДОГОВОРА****SEMANTIC CHARACTERISTICS OF SYNONYMY FORMS OF CONTRACT****Axmadjonov Ilxomjon Toxirjon o'g'li¹** ¹Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi,**Dadajonov Avazbek Rahmatjon o'g'li²** ²Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada kelishik shakllarining sinonimiyasi haqida va bu sinonimiyaning turli xil semantik maydonda yuzaga kelishi haqida bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье описывается синонимия форм договора и встречаемость этой синонимии в разных семантических полях.

Abstract

This article describes the synonymy of contract forms and the occurrence of this synonymy in different semantic fields.

Kalit so'zlar: kelishik shakllari, nutq uslublari, sinonimik affikslar**Ключевые слова:** формы договора, стили речи, синонимические аффиксы.**Key words:** agreement forms, speech styles, synonymous affixes**KIRISH**

Kelishik affikslari nutq vaziyati va uslubiy jihatdan o'zaro ma'nodoshlik ham hosil qilishi mumkin. Kelishik shakllari sinonimiyasida bir kelishik qo'shimchasi boshqa bir kelishik shakli bilan almashib qo'llanadi, lekin ma'noda biroz farq sezilib turadi. Barcha kelishik shakllarida ma'nodoshlik jarayoni kuzatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kelishik shakllarining nazariy muammolarini aniqlashda, ularning nutqiy xususiyatlarini ko'rsatib berishda, sinonimlik va semantik xususiyatlarini yoritishda tavsifiy, qiyosiy, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qaratqich va chiqish kelishigi shakllari ko'pchilikdan birini ayirib olish ma'nosida o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladi. Masalan, **Mezbonlardan biri mehmonlarga voqeani bayon qildi. Voqeadan xabardor bo'lgan xodimlar tipirchilab qolishdi. Mehmonlardan biri yosh bolalarni to'plab she'r o'qib berayotgan bir juvonga ta'na qildi.** (A.Qahhor) Ushbu parchadagi **mezbonlardan va mehmonlardan biri** birikmalaridagi **-dan** qo'shimchasi o'rniga **-ning** shaklini qo'yish matn mazmuniga ta'sir etmaydi, ya'ni sinonimlikni yuzaga keltiradi: **mehmonlarning biri** kabi.

Qaratqich kelishigi shaklining boshqa kelishik shakllari bilan ma'nodosh bo'lishi kuzatilmaydi. Chunki qaratqich kelishigi o'rin-payt va jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bilan semantik tarafdin uyg'unlashmaydi.

Tushum kelishigi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bilan sinonimlik hosil qila oladi. Bu ikki kelishikning ma'nodosh bo'lishi kelishikni olayotgan so'zga bog'liq. **Tushunmoq** leksemasiga bog'lanib kelganda ular erkin almasha oladi. Masalan, **Do'stimning so'zlariga tushunmadim** –

ILMIY AXBOROT

do'stimning so'zlarini tushunmadim. Jo'nalish va tushum kelishiklarining sinonimlik holatida ko'pincha tushum kelishigi ishlatiladi. Jo'nalish kelishigi shakli esa so'zlashuv uslubida qo'llanadi.

Tushum kelishigi o'rin-payt kelishigi bilan ma'nodoshlik hosil qilishi uchun kezmok, aylanmoq leksemalari bilan sintaktik jihatdan munosabatga kirishishi zarur. Masalan:

Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi menda. (H.Olimjon)

Ushbu she'riy parchadagi **vodiylarni** leksemasi tarkibida kelgan *-ni* kelishigi o'rniga *-da* kelishik shaklini qo'yish mumkin. Tushum va o'rin-payt kelishiklari ma'nodoshlik hosil qilsa-da, ular o'rtasidagi ma'noda biroz farq sezilib turadi. *-ni* shakli butun bir vodiyni kezmanlikni ifodalasa, *-da* shakli vodiyni ma'lum joyini kezish ma'nosida qo'llanadi. Uslubiy jihatdan ham ular o'rtasida farq mavjud. O'rin-payt kelishigi shakli ko'proq so'zlashuv uslubida ishlatilsa, tushum kelishigi uslubiy betaraflik kasb etadi.

Tushum va chiqish kelishigi shakllari o'zaro bo'lak-butun munosabatini anglatganda sinonim bo'la oladi. Bunda tushum kelishigi shakli butunni, chiqish kelishigi esa bo'lak ma'nosini anglatadi. Masalan, *Mashinaga hojat yo'q. Ana, ko'chada tramvay, trolleybus bor, bo'ladi-da. Mashina sizlarga kerak. Olsalaring bo'ladi... Norbibi rangi o'zgarib choydan ho'pladi.* (Sh.Xolmirzayev) Mazkur parchadagi **choydan** leksemasi tarkibidagi *-dan* affiksi tushum kelishigi shakli bilan almasha oladi. **Choydan** ho'pladi – **choyni** ho'pladi. Bu affikslarning bo'lak-butun munosabati sinonimligi nutqiy uslub tanlamaydi, barcha uslublarda bu ma'nodoshlikni kuzatish mumkin.

Tushum va chiqish kelishiklari fikr mavzusi ma'nosida kelganda ham sinonim bo'lishi mumkin. Masalan, *Hayot tashvishlarini gaplashdik – hayot tashvishlaridan gaplashdik.*

Jo'nalish kelishigi shakli o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi bilan **tushmoq, to'lmoq** leksemasi bilan qo'llanishi tufayli o'zaro sinonimlik hosil qiladi. Masalan, *bekatda tushdi – bekatga tushdi.* So'zlashuv uslubida bu sinonimlik birdek qo'llanaveradi. **To'lmoq** leksemasi bilan bog'langanda *-da* shakli so'zlashuv nutqiga xos, *-ga* shakli uslubiy jihatdan betaraf sanaladi.

Hamma narsa meni qarshilar,

Har bir kurtak menga so'ylar roz.

Men yurganda bog'larga to'lar,

Faqat baxtni maqtagan ovoz. (H.Olimjon)

Ushbu parchadagi **bog'larga** leksemasi tarkibida kelgan jo'nalish kelishigi shakli o'rnida o'rin-payt kelishigini almashtirib qo'llash mumkin.

Jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari bundan boshqa holatda ham sinonim bo'la oladi. Bu holat Buxoro va Samarqand shevalarida ko'zga tashlanadi. Masalan, **ahvolim joyida – ahvolim joyiga.**

Jo'nalish kelishigi chiqish kelishigi bilan sabab ma'nosida kelgan holatlarda sinonim bo'la oladi. Masalan, **kasalligiga kelmadi – kasalligidan kelmadi.**

Jo'nalish kelishigi shakli sabab ma'nosidan tashqari ham chiqish kelishigi bilan sinonim bo'la oladi. Masalan, *Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aqli ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.* (A.Qahhor) Parchadagi **teshikdan** so'z shaklidagi *-dan* shakli o'rniga *-ga* affiksini ishlatish mumkin.

O'rin-payt va chiqish kelishigining qaysi kelishik shakllari bilan ma'nodosh bo'lishiga yuqorida to'xtalib o'tildi.

Yozma nutq uslublarida qaratqich va tushum kelishiklarining; o'rin-payt va chiqish kelishiklarining sinonimligi kuzatilmaydi.

Kelishik shakllarining ma'noviy xususiyatlari haqida so'z yuritilganda unga ma'nodosh bo'lgan boshqa morfologik birliklarga ham to'xtalish zarur. Ko'makchi turkumidagi so'zlar kelishiklar bilan vazifa jihatidan umumiylik kasb etadi. Bu umumiylik tobe-hokim munosabatida ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari ular semantik jihatdan ham umumiylikni namoyon etishi mumkin. Kelishik va ko'makchi shakllari o'zaro bir mazmuniy maydonda yashasa-da, uslubiy jihatdan farq nutqiy vaziyatlarda sezilib turadi. "Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ko'makchilarning lokativ (fazoviy) kelishik qo'shimchalari yordamida shakllanishi tasodifiy

emas, ayni funksional yaqinlik (joy, vaqtga munosabat, yo'nalish...) bunga sharoit yaratadi. Aslida oppozitsiyada bo'lgan birlik (ko'makchi) va grammatik shakl (kelishik qo'shimchasi)ning qarama-qarshiligi neytrallashib, uslubiy-pragmatik yaqinlikka aylanadi". [1. 12] Kelishik va ko'makchi o'rtasidagi munosabat bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilgan [2. 4-26], ammo bizning tadqiqotimizda kelishik shakllarining ko'makchi bilan qaysi mazmuniy munosabatda uyg'unlashi va ularning uslubiy taraflariga baho beriladi.

Yuqorida bayon qilinganidek, sabab ma'nosi ostida jo'nalish va chiqish kelishik shakllari umumiylik kasb etadi. Mazkur ma'noda bu kelishiklar bilan *uchun*, *tufayli*, *bois*, *sababli* kabi ko'makchilar uyg'unlik hosil qila oladi. Lekin nutq uslublarida ko'makchilar ushbu ma'noda badiiy va publitsistik uslubda, kelishik shakllari esa so'zlashuv uslubida qo'llanadi. *Uchun* ko'makchisi sabab ma'nosida neytral sanaladi. U barcha nutq uslublarida erkin qo'llanish imkoniga ega. Masalan, *kasalligiga kelmadi – kasalligidan kelmadi – kasalligi uchun kelmadi – kasalligi bois kelmadi – kasalligi sababli kelmadi* birikuvlariga e'tibor bersak, kelishiklar orqali sabab ma'nosi faqat so'zlashuv uslubida yoki yozuvchining biror hududning nutqiy holatlarini yoritib berish maqsadi bilan badiiy uslubda ham qo'llanishi mumkin.

Vosita ma'nosi o'rin-payt va chiqish kelishik shakllari orqali ifodalanadi. Bu ma'no *bilan*, *orqali* kabi ko'makchilar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *qalamda yozdi – qalam bilan yozdi – qalam orqali yozdi* birikmalari orqali bu ma'noning yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Bu misollardagi vosita ma'nosi kelishik shakli bilan ifodalanishi barcha nutq uslublarida, bilan orqali ifodalanishi so'zlashuv uslubida, orqali ko'makchisi bilan ifodalanishi badiiy, publitsistik va ilmiy uslublarda qo'llanishi mumkin.

Lokal ma'nodagi kelishik va ko'makchilar umumiyligida ham turli xil uslubiy farqlar mavjud. Jo'nalish kelishigi tomon, sari ko'makchilari bilan umumiylik kasb etsa-da, uslubiy farq yuzaga keladi. Jo'nalish kelishigi manzilni aniq ifodalash bilan birga uslubiy betarafligi bilan ajralib turadi. Ko'makchilar esa ko'proq badiiy va publitsistik uslublarda qo'llanishi bilan xarakterlidir. Masalan, *maktabga ketdi – maktab tomon ketdi – maktab sari ketdi* misollari dalil bo'la oladi.

XULOSA

Yuqorida bayon etilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, kelishik shakllari ma'lum sema ostida birlashib, o'zaro sinonimlik hosil qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пардаев А. Хозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал-стилистик хусусиялари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2005. – Б.12.
2. Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар парадигматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.